



# SAMARQAND VILOYATIDA XIZMATLAR SOHASINING RIVOJLANISHI


**2023-yil  
yanvar-iyun**

*Dastlabki ma'lumotlar*

# Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari <sup>1)</sup>

(2019-2023-yillar yanvar-iyun)

Xizmatlar sohasining mamlakat iqtisodiyotidagi ulushini oshirish, joylarda xizmatlar sohasidagi mavjud imkoniyatlardan to'liq foydalanish, xizmat turlarini kengaytirish va sifatini oshirish, tadbirkorlik subyektlarini yanada qo'llab-quvvatlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 11-maydagi PQ-5113-son qarori bilan "O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirishning maqsadli parametrlari" tasdiqlandi va ularning monitoringini olib borish joriy etildi.



3 193,2  
ming so'm

Aholi jon boshiga xizmatlar hajmi

66,1 %

Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik ulushi

73,2 %

Xizmatlar sohasidagi korxonalar va tashkilotlar ulushi

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2023-yilning yanvar-iyun oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 13 215,7 mlrd. so'mga yetdi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 110,4 % ni tashkil etdi.

**Xizmatlar sohasi bu** – korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmat turlarini takror ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan umumlashtiruvchi kategoriyadir. Bu tijorat, professional va iste'mol xizmatlarini ko'rsatishga ixtisoslashgan mamlakatning iqtisodiy sektoridir.

<sup>1)</sup> Shu va keyingi o'rinlarda 2019-2022-yillar ko'rsatkichlari har bir keyingi yil metodologiyasiga muvofiq qayta ko'rib chiqilgan



## Hududlar kesimida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari (2023-yil yanvar-iyun)

Hududlar	Hajmi, <i>mlrd. so'mda</i>	Ulushi, %	O'sish sur'ati, %
<b>Samarqand viloyati</b>	<b>13 215,7</b>	<b>100,0</b>	<b>110,4</b>
Samarqand sh.	5 793,8	43,8	109,8
Kattaqo'rg'on sh.	292,9	2,2	108,8
<i>tumanlar:</i>			
Oqdaryo	397,9	3,0	108,0
Bulung'ur	347,3	2,6	109,0
Jomboy	554,2	4,2	108,1
Ishtixon	455,4	3,5	108,5
Kattaqo'rg'on	473,3	3,6	108,1
Qo'shrabot	256,6	1,9	108,9
Narpay	425,9	3,2	108,4
Payariq	461,6	3,5	109,2
Pastdarg'om	802,3	6,1	108,6
Paxtachi	285,8	2,2	108,2
Samarqand	976,0	7,4	117,3
Nurobod	250,0	1,9	108,5
Urgut	843,3	6,4	109,5
Toyloq	599,4	4,5	123,9

**Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi** iste'molchilarga (yuridik va jismoniy shaxslarga, shu jumladan norezidentlarga) ma'lum vaqt davomida ko'rsatiladigan xizmatlar narxini aks ettiradi.

# Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari (2019-2023-yillar yanvar-iyun)



**2023-yil yanvar-iyun** oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **3 193,2** ming so'mga yetdi. **2022-yilning yanvar-iyun** oylariga nisbatan o'sish sur'ati **108,0** % ni tashkil etdi.



## Hududlar kesimida aholi jon boshiga xizmatlar (2023-yil yanvar-iyun)

Hududlar	Hajmi, ming so'mda	O'sish sur'ati, %
<b>Samarqand viloyati</b>	<b>3 193,2</b>	<b>108,0</b>
Samarqand sh.	10 051,7	107,5
Kattaqo'rg'on sh.	3 116,2	106,7
Oqdaryo	2 339,1	105,4
Bulung'ur	1 749,7	106,7
Jomboy	2 981,4	105,5
Ishtixon	1 678,7	106,3
Kattaqo'rg'on	1 637,0	106,0
Qo'shrabot	1 835,7	106,8
Narpay	1 899,6	106,5
Payariq	1 720,5	106,5
Pastdarg'om	2 130,3	106,4
Paxtachi	1 899,3	106,7
Samarqand	3 632,3	114,7
Nurobod	1 562,3	106,4
Urgut	1 537,5	106,9
Toyloq	2 764,6	121,0


## Xizmatlar sohasining turlari bo'yicha asosiy ko'rsatkichlari (2023-yil yanvar-iyun)

Tarmoqlar tasniflagichining belgilangan xalqaro standartlariga o'tish munosabati bilan O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirish Dasturining maqsadli parametrlariga kiritilgan xizmatlarning asosiy turlarini guruhlash, G dan S gacha bo'lgan bo'limlar bo'yicha xizmatlar bilan bog'liq bo'lgan qism va iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar) Statistik tasniflagichi (MST) ga ko'ra muvofiqlashtirildi.

	Hajmi, <i>mlrd. so'mda</i>	Ulushi, %	O'sish sur'ati, %
<b>Xizmatlar – jami</b>	<b>13 215,7</b>	<b>100,0</b>	<b>110,4</b>
<i>shu jumladan:</i>			
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	626,5	4,7	124,0
Moliyaviy xizmatlar	2 174,9	16,5	116,5
Transport xizmatlari	3 075,1	23,3	105,1
<i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>	2 814,0	21,3	106,4
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	745,5	5,6	129,5
Savdo xizmatlari	3 425,4	25,9	105,5
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	315,6	2,4	111,1
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	659,5	5,0	119,8
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	248,4	1,9	99,4
Ijara xizmatlari	357,2	2,7	109,3
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	379,2	2,9	106,4
Shaxsiy xizmatlar	595,2	4,5	107,8
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	214,8	1,6	112,2
Boshqa xizmatlar	398,4	3,0	113,6



# Moliyaviy xizmatlar (2019-2023-yillar yanvar-iyun)




2019-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 2023-yilning mos davrida moliyaviy xizmatlar hajmi **1 466,6** mlrd. soʻmga oshib, **2 174,9** mlrd. soʻmga yetdi. Jami xizmatlar hajmida moliyaviy xizmatlarning ulushi **16,5** foizni tashkil etdi. Moliyaviy xizmatlarning oʻsish surʻati **116,5** % ni tashkil etdi.

**Moliyaviy xizmatlar hajmi** moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan toʻlovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash boʻyicha xizmatlari uchun toʻlanadigan haq hisobiga koʻra olinadi.


## Moliyaviy xizmatlar tarkibi

(2023-yil yanvar-iyun)

2023-yilning yanvar-iyun oylarida moliyaviy xizmatlar tarkibida sugʻurta va nafaqa taʼminoti boʻyicha xizmatlardan tashqari xizmatlarning ulushi **91,2** % ni tashkil etdi.



2023-yilning yanvar-iyun oylarida transport xizmatlari hajmi 3 075,1 mlrd. so'mni tashkil etib, 2022-yilning mos davriga nisbatan ushbu xizmat turining o'sish sur'ati 105,1 % ni tashkil etdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi 23,3 % ni tashkil etdi.




Transport xizmatlarining hajmi amaldagi narxlarda transport turlari bo'yicha transport jarayoniga (yuklarni tushirish va yuklash ishlari, transport-ekspeditorlik xizmatlari, transport xizmati va boshqalar) bevosita bog'liq bo'lgan tashish va boshqa faoliyatdan olingan daromad summasi sifatida aniqlanadi.

2023-yilning 1-iyul holatiga ko'ra, asosiy faoliyat turi tashish va saqlash bilan bog'liq bo'lib, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 1 019 birlikni, yoki ularning umumiy sonining 2,4 % ni tashkil etdi.

## Transport xizmatlarining turlari bo'yicha tarkibi


(2023-yil yanvar-iyun)



Transport xizmatlarining umumiy hajmida avtomobil transporti xizmatlari ustunlik qiladi (91,5 %).

# Avtomobil transporti xizmatlari

(2019-2023-yillar yanvar-iyun)



**2023-yil yanvar-iyun oylarida** avtomobil transportida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **2 814,0** mlrd. so'mga yetdi.

**2022-yil yanvar-iyun oylariga** nisbatan ushbu xizmatlarning o'sish sur'ati **106,4 %** ni tashkil etdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi **21,3 %** ni tashkil etdi.


**Avtomobil transporti xizmatlariga** temir yo'lda tashishdan tashqari, quruqlikdagi yo'lovchi transportining boshqa xizmatlari, avtomobil transportida yuk tashish bo'yicha xizmatlar va ko'chish bo'yicha xizmatlar kiradi.



## Avtomobil transporti xizmatlarining tarkibi, %

Avtotomobil transporti xizmatlarining umumiy hajmida yo'lovchilarni tashish xizmatlari ustunlik qiladi (**71,5 %**).

**Taqqoslash uchun:** 2022-yilning yanvar-iyun oylarida ushbu ko'rsatkich **72,0 %** ni tashkil etgan.






# Savdo xizmatlari

(2019-2023-yillar yanvar-iyun)

2019-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 2023-yilning yanvar-iyun oylarida savdo xizmatlari hajmi 1 771,5 mlrd. soʻmga oshib, 3 425,4 mlrd. soʻmni tashkil etdi.

2022-yilning mos davriga nisbatan ushbu xizmat turi boʻyicha oʻsish surʼati 105,5 % ga yetdi.



Savdo xizmatlari, shu jumladan, elektron savdo xizmatlari hajmi amaldagi narxlardagi yalpi daromad qiymati, yaʼni sotilgan tovarlarning sotib olish va sotish narxlari orasidagi farqining umumiy qiymati sifatida hisobga olinadi. Agar tovarlar boshqa shaxs manfaatlari uchun oldi-sotdi shartnomalari, komissiyalar yoki agentlik shartnomalari asosida sotilgan taqdirda, xizmatlar qiymati mukofot miqdori sifatida aks ettiriladi.




2023-yilning 1-iyul holatiga koʻra xizmatlar sohasida faoliyat koʻrsatayotgan korxonalar va tashkilotlar umumiy sonida savdo faoliyati bilan band boʻlganlarning ulushi 37,5 % yoki 16 209 birlik bilan ustunlik qiladi.



# Savdo xizmatlarining tarkibi

(2023-yil yanvar-iyun)

2023-yilning yanvar-iyun oylarida chakana savdoning ulushi savdo xizmatlari umumiy hajmining **75,2 %** ni tashkil etdi.



Ulgurji savdo xizmatlari, avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari xizmatlar


Avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar

Avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi, jumladan, ularni ta'mirlash xizmatlarini qo'shgan holda xizmatlar



# Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari

(2019-2023-yillar yanvar-iyun)




**2023-yilning yanvar-iyun** oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi **626,5** mlrd. soʻmdan iborat boʻlib, **oʻtgan yilning mos davriga** nisbatan oʻsish surʻati **124,0** % ni tashkil etdi.

**Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi** amaldagi narxlarda mazkur sohada xizmat koʻrsatuvchi korxonalarining daromadlari (sotishdan tushgan tushum miqdori) yigʻindisi sifatida aniqlanadi.


**2023-yilning 1-iyul** holatiga koʻra “Axborot va aloqa” faoliyati bilan shugʻullanuvchi korxonalar va tashkilotlar soni **618** birlikka yetdi.

## Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi

2022-y. (2023-yil yanvar-iyun, %) 2023-y.



# Ta'lim sohasidagi xizmatlar (2019-2023-yillar yanvar-iyun)



**2023-yil yanvar-iyun** oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi **659,5** mlrd. so'mga yetdi. **O'tgan yilning mos davriga** nisbatan o'sish sur'ati **119,8** % ni tashkil etdi.

“**Ta'lim**” **seksiyasi** kunduzgi yoki sirtqi shaklda, shuningdek, Internet tarmog'i va pochta yozishmalari orqali xususiy yoki davlat tomonidan beriladigan turli darajadagi ta'limni va turli kasblarga o'rgatishni o'z ichiga oladi.

Bunga turli darajadagi muntazam maktab tizimi doirasida turli muassasalar tomonidan beriladigan ta'lim, shuningdek, kattalar uchun ta'lim (tayyorlash va qayta tayyorlash kurslari), ta'lim sohasida yordamchi faoliyat va shunga o'xshash boshqalar kiradi.


**Ta'lim sohasidagi faoliyatni** amalga oshirishda masofaviy o'qitish shaklini ham hisobga olgan holda ko'rsatilgan bozor xizmatlari (kontrakt) qiymati aks ettiriladi.



# Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (2019-2023-yillar yanvar-iyun)



**2023-yil yanvar-iyun** oylarida sog'liqni saqlash xizmatlari hajmi **248,4** mlrd. so'mni yoki ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining **1,9 %** ni tashkil etdi.




**Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi** bu – sog'liqni saqlash muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam va sanitariya xizmatlari uchun ko'rsatiladigan bozor xizmatlarining qiymatidir.

**2023-yilning 1-iyul** holatiga ko'ra sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot sohasi xizmatlarida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni **974** birlikni tashkil etdi.



# Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (2019-2023-yillar yanvar-iyun)

**2019-yilning yanvar-iyun** oylariga nisbatan 2023-yilning ushbu oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning hajmi **523,2** mlrd. so'mga oshib, **745,5** mlrd. so'mni tashkil etdi.




**Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar** – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

**Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi**, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

**2023-yilning 1-iyul** holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni **3 379** birlikni tashkil etgan.


**Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi**  
(2023-yil yanvar-iyun)



# Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (2019-2023-yillar yanvar-iyun)



**2023-yil yanvar-iyun** oylarida ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar hajmi **315,6** mlrd. so'mni tashkil etdi. Xizmatlarning umumiy hajmida ularning ulushi **2,4 %** ni tashkil etdi. **2022-yilning yanvar-iyun** oylariga nisbatan o'sish sur'ati **111,1 %** ni tashkil etgan.




**Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarni ko'rsatishda ko'chmas mulk bilan bog'liq operatsiyalar bo'yicha xizmatlar qiymati, korxonaning shaxsiy, xo'jalik yuritish yoki tezkor boshqaruvidagi, shuningdek, ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlari aks ettiriladi.**

## Me'morchilik sohasidagi xizmatlar (2019-2023-yillar yanvar-iyun)


**2023-yilning yanvar-iyun** oylarida me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmi **214,8** mlrd. so'mga yetdi.

Xizmatlarning umumiy hajmidagi ulushi esa **1,6** % ni tashkil etdi. **2022-yilning yanvar-iyun** oylariga nisbatan o'sish sur'ati **112,2** % ni tashkil etdi.



**Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar** hajmi shartnomada nazarda tutilgan talablarga muvofiq loyihalar, izlanishlar, konstruktorlik va texnologik ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar, shuningdek, qurilish ishlari ustidan nazorat va boshqa injenerlik xizmatlarining qiymatini o'z ichiga oladi.

# Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar (2019-2023-yillar yanvar-iyun)



**2023-yilning yanvar-iyun** oylarida kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar hajmi **379,2** mlrd. so'm miqdorida qayd etilib, 2022-yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **106,4 %** ni tashkil etgan.



## Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlarining tarkibi (2023-yil yanvar-iyun)




**Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar hajmi** bu – kompyuterlar va periferik uskunalarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish kommunikatsiya uskunalari (fakslar, radiostansiyalar)ni ta'mirlash, maishiy elektronika (radiopriyomniklar va televizorlar), uy va bog' uchun uskunalar (gazon o'ruvchi va havo (dam) beruvchi mashina), poyabzal va charm buyumlar, mebel va uy jihozlari, kiyim va aksessuarlar, sport anjomlari, musiqa asboblari va boshqa shaxsiy buyumlar va maishiy tovarlarni ta'mirlashdan tushgan tushum miqdoridir.

# Ijara xizmatlari

(2019-2023-yillar yanvar-iyun)

**2019-yilning yanvar-iyuniga** nisbatan o'rganiylayotgan davrda ijara xizmatlari hajmi **175,3** mlrd. so'mga oshib, **357,2** mlrd. so'mga yetdi. Xizmatlarning umumiy hajmidagi ulushi **2,7 %** ni tashkil etdi.



**Ijara xizmatlari** bo'yicha ishlab chiqarish hajmi mashinalar va asbob-uskunalarni operatorlarsiz ijaraga berish, maishiy jihozlar va shaxsiy ehtiyoj buyumlarini ijaraga berishdan olingan daromad miqdori sifatida aniqlanadi.

Xizmatlar sohasining kengayishi va rivojlanishi milliy daromadning o'sishiga yordam beradi, aholining munosib hayot sifatini ta'minlashda hal qiluvchi omil hisoblanadi. Xizmatlarning yuqori sifati va xilma-xilligi ishchilarning mehnat unumdorligini oshiradi, iste'mol xarajatlarini kamaytiradi, vaqtni tejashga yordam beradi va bo'sh vaqt samaradorligini oshiradi.